

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronning sud-kimyo tezkor tekshiruv uslublari ishlab chiqish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - jismoniy kuch bag'ishlovchi moddalarni oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronni biologik suyuqliklar tarkibidan ajratib olinadi va tarkibidagi zaharli modda o'rganiladi; - mavjud uslublar takomillashtiriladi va yangi yuqori samaradorlikka ega bo'lgan texnologik usullar ishlab chiqiladi; - oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronni bemorlar qon va peshobi tarkibidan GSX, YuSSX apparatlarda tahlil qilinadi va miqdori aniqlanadi; - o'tkir zaharlanish holatlarida sud-kimyo ob'ektlari bo'lgan biologik suyuqliklardan ajratib olingan ajrilmalarda soddalashtirilgan(mikroskopik) usullar yordamida zaharli modda mavjudligi aniqlanadi va ularga antidotlar tavsiya etiladi; - oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronni qon, peshob, so'lak, soch, tirnoqdan ajratib olish uslublarini ishlab chiqiladi tibbiyot xodimlariga laboratoriya reglamentlari taklif qilinadi; - oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronning sud-kimyo tezkor tekshiruv uslublari ishlab chiqiladi tibbiyot muassasalariga metodik yo'riqnomalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida sinovlardan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog'liqni saqlash vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.